

ILM VA ADAB MASKANI

Aminov Komiljon

“Xorazm musiqa san’ati tarixi” bo’limi mudiri.


Egamova Gulchira

“Allomalar” bo’limi mudirasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17200321>

Annotatsiya: Maqolada madrasa tarixi, Xiva Ichan-Qal’adagi Qozi-kalon madaniy meros hisoblangan madrasa tarixi, qozilar tarixi, madrasaning davlatchilik tarixida tutgan o’rni ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: Madrasa, savod, Qozi-Kalon, xujra, vaqf, tanob.



Madrasa “(darasa, o’rganmoq) - musulmonlarning o’rta va oliy o’quv yurti” deya izoh berilgan O’zbekiston milliy ensiklopediyasida.¹

K. Xudayberganovning “Xiva dunyodagi eng ko’hna qal’a” kitobida ham Madrasa arabcha dars o’qitiladigan joy, darsxona deya tarif berilgan.²

Sho’ra tarixchilari, O’rta Osiyoni go’yo qoloq, madaniyati past deb dunyo ahliga tanishtirish maqsadida “1913 yilda Turkiston xududidagi aholining atigi 2 foizi (!) savodli bo’lgan” degan o’ta tuturiqsiz, bema’ni da’voni yuritib kelishgan. Agarda ushbu raqamni shu fursatda aholining rus grafikasini bilish miqdoriga nisbatan qo’llansa, xaqiqatga to’g’ri kelar. Ammo, o’rta asrlardan boshlab adabiyot, san’at va madaniyat taraqqiy etgan O’rta Osiyo davlatlarida ulusning savodlilik darajasi Ovrupaga nisbatan yuqori bo’lganligi sir emas. Xiva O’rta Osiyoda madrasalar ko’pligi jihatidan faqat Buxorodan so’ng ikkinchi o’rinni egallaydi. Izlanishlar shuni ko’rsatadiki XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xivada 65 madrasa bo’lib, ularning 54 tasi shaharda, 11 tasi shahar atrofida joylashgan.

Mazkur madrasalarning o’ntasi Xiva xonlari, 20 dan ziyodi esa xon avlodlari, boylar va diniy mahkama ulomalari tomonidan qurilgan. Odatda madrasa qurishni niyat qilgan kishi ustalarni to’plab loyixasi bo’yicha tanlov o’tkazgan. Eng maqbul chizma tanlab olinib, ishga kirishilgan.

“Madrasa qurdirmoqchi bo’lgan kishi avvaliga barchani yig’ib to’y bergan, sohibkor

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси Т. 2003 йил. 377 бет.

² К. Худайберганов. Хива дунёдаги энг кўҳна қалъа: Т. 2012й 28 бет

(qurilish boshlig'i), hisob - kitob yurituvchi devonbegi tayinlangan".³

Xivadagi mo'jazgina madrasalardan biri 1905 yilda Xiva xonining bosh qozisi Muhammad Salim Oxun qurdirgan Qozi - Kalon madrasasidir. Salim Oxun 30 yoshida Xiva xonligining bosh qozisi mansabiga ko'tarilib, o'zining kuchli bilimi va iqtidori tufayli umrining oxirigacha uzoq yillar bu mansabda ishlagan. Madrasaning bosh fasadi shahar ko'chasiga qaragan mo'jazgina bu inshoot g'arbiy va sharqiy darvozalarni ko'ndalang o'qini bir biri bilan birlashtirib turadi. Madrasaning devoriga tashqi tamondan tirgak sifatida 4ta guldasta qurilgan. Guldasta oq, ko'k, va yashil koshin qoplamalari bilan bezatilgan. Baland peshtoq ostidagi kichikroq darvoza (o'yma eshik, qo'sh tabaqali) orqali usti yopiq 3ta gumbaz bilan bostirilgan miyonsaroyga kiriladi. Madrasaga kirilgach chapda darsxona, o'ngda masjid joylashgan bo'lib, madrasaning 16 xujrasi bor. Xujralarning eshik va derazalari ayvon tomonga qarab qurilgan. Har bir xujrada o'choq bor. Ayvonda quduq bo'lib chuqurligi 8 - 10m. Madrasaning tashqi va ichki peshtoqlarida arab alifbosida falsafiy ma'noda yozuvlar bor. Madrasa o'z qiyofasi sahni bilan uncha katta bo'lmasada o'qitish uslubi bilan boshqa madrasalardan farq qilgan. Unda diniy bilimlar bilan bir qatorda fiqh shariat qonunlari, turli zakot va soliqlar yig'ish, ya'ni huquqshunoslik bilimlari berilgan.

Mamlakatdagi eng yuqori darajali huquqshunos qozi - kalon (qozi ul quzzot - bosh qozi) xisoblangan. Qozi kolon mansabi hukumdor xon tomonidan tayinlanib, xon ularni tez - tez almashtirib turar va yangi lavozimga tayinlanadigan shaxs imtihondan o'tkazilar edi. Xonlikni viloyat va tumanlaridagi qozilar bosh qozi- qozi kalonga bo'ysunardi. Qozilar va qozi kalon xukmidan narozi bo'lgan fuqaro xonga arz qilishi mumkin va bu holda u arzxonaga kelib arzinini aytishi lozim edi. Ammo, Qozining aniqlagan barcha ishlari adolatli va muqaddas hisoblangan, chunki, barchasi qur'on qoidalariga mos bo'lgan. Har bir beklikda bittadan to'rttagacha qozi bo'lib, ular juda o'qimishli va musulmon shariati qoidalarini bilag'oni hisoblanishadi. Qozilar yangi ish joyiga o'tish uchun tanlovga nomzodini qo'yib, Xivada imtihon topshiradilar. Ko'pchilik nomzodlar imtihondan o'ta olmaydilar. Imtihondan o'tgan qozilar xonning farmoni bilan tasdiqlanadi va o'zlari uchun muhrkanlarga muhr tuzattirib ish boshlaydilar.⁴

Madrasa qurilishida eng mashhur ustalardan Xudoybergan hoji, Qalandar Qo'chim, Bog'bek Abdurahmonov, Matchon Boltaev, Vais kulol va boshqalar ishtirok qilganlar. Madrasa kirish eshigining ustida uchta joyda koshin plitkalarga yozuvlar bitilib o'rnatilgan. Eshik ustidagi yozuvlar fors tili, nasta'lik xatida bo'lib, uning tarjimasi:

“Bu dunyoning hukumroni davrida,
Ushbu oliy bino qurildi.

Unga yaxshilikdan shon - shavkat etishib, hammaning qalbiga mehr bilan o'rnashdi. Uning peshtoqi osmon qadar bo'y cho'zib, Quyosh bulog'ining suvi bilan yuzini yuvdi. Quchoq'ida minglab gullar bahor kabi ochilib, Toshlaridan xushbo'y rayxon hidi kelib turadi.

Tunlarning zulmati maniylar mavjidan, Ko'ngillarga yangicha bir toza hayot bag'ishladi. Farishta Sirrush binoning tarixiga, Bir tengsiz ajoyib makon bo'lg'aysan, dedi.

Bu joy aql idrok egalarining makonidir,
Unda dinning chigal qonunlari echiladi.

³ А. Абдурасулов. Хива. Ўзбекистон нашриёти. 1997й 42 бет

⁴ Қальмиков. А. Хива Протоколи заседаний и сообщений Членов Туркистанскава кружка любителей архиологии. Т. X11 1908. с 54, 55

Barcha qiyinchiliklarni engib, bu joyning,
Oliy nomini Adan jannatlari deb bilgaysiz.

Boqiy bo'lgan bu yodgorlikning tarixiga,
Bilim yo'lining bunyodi uchun bag'ishladim.
Tafakkur qilib jannatning boshidan yasaldi,
Ham dediki: - Ilmu - odob makoni.”⁵

“Ilmu - odob makoni” xalqimiz orasida niyating yo'ldoshing bo'lsin degan xikmatli so'zi bor. Haqiqatdan ham tarixga murojat qiladigan bo'lsak. “Zardusht ta'limoti, “Avesto”da olg'a surilgan ezgu niyat, ezgu kalom, va ezgu amal hamon insoniyatni ezgulik tomon chorlab, odamlarni ruhan poklab, ma'naviyat chamani tomon yetaklab kelmoqda”.⁶

Islom dinining kitoblarida ham niyat birinchi o'rinda turadi. Qozi kalon madrasasi peshtoqlaridagi yaxshi niyatli yozuvlar ham bunga dalolat beradi.

Qozi - Kalon madrasasi:

1905 - 1924 yillarda musulmonlarning oliy o'quv dargohi.

1972 - 1982 yillarda Xorazm amaliy san'at muzeyi.

1982 - 1992 yillarda Xiva “Oltin qo'llar” folklor, etnografik ansambli binosi.

1992 yildan “Xorazm musiqa san'ati tarixi” muzeyi faoliyat ko'rsatmoqda. Demak bu maskan hozirgacha insoniyatni ezgulik tomon chorlab, ma'naviyat chamani tomon etaklab kelmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi T. 2003 yil. 377 bet.
2. K. Xudayberganov. Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a: T. 2012y 28 bet
3. A. Abdurasulov. Xiva. O'zbekiston nashriyoti. 1997y 42 bet
4. Qalmikov. A. Xiva Protokoli zasedaniy i soobsheniy Chlenov Turkistanskova krujka lyubiteley arxiologii. T. X11 1908. s 54, 55
5. Komiljon Xudayberganov. Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a. T. 2012y 93bet
6. Narzulla Jo'raev. Loyixa muallifi. Avesto. T. 2001y. 358 bet

⁵ Комилжон Худайберганов. Хива дунёдаги энг кўҳна қалъа. Т. 2012й 93бет

⁶ Нарзулла Жўраев. Лойиха муаллифи. Авесто. Т. 2001й. 358 бет